



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНинг ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ



19-oktabr 2021-yil

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ

МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО МУСИҚА
ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ
МАСАЛАЛАРИ**

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

19 октябрь

Бухоро - 2021

kurashish, ularni ommaviy sportga jalb qilishga qaratilmog’I lozim.

Shunga ko‘ra, yoshlar turmush madaniyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari tomonidan quyidagilarga e’tibor qaratish talab etiladi:

- ommaviy axborot vositalarida yoshlar turmush madaniyatini rivojlantirishga oid ko‘rsatuvlarni muntazam berib borish;

- yoshlarning ongi va mafkurasiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan g‘oyaviy va informatsion kuchlarni fosh qilish;

- turli mazmundagi ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuvlar orqali sog‘lom oila va sog‘lom avlod tushunchasini yoshlar ongiga yetkazish;

- turmush madaniyatiga oid reklama va roliklarni ko‘paytirish;

- turmush madaniyatini rivojlantirishda ajdodlar merosidan, hadis va rivoyatlardan foydalanish;

- muqaddas qadamjolar va tarixiy obidalarni asrab-avaylashga qaratilgan turkum ko‘rsatuv va eshittirishlarni berib borish;

- nosog‘lom turmush kechirishning oqibatlari haqida ko‘rsatuvlar berib borish maqsadga muvofiqli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

XXI asr psixologiyasi jurnali, 2020-yil 18-20 mart

“O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida o‘qituvchi shaxsining rivojlanishi”

R. Atamurodov, G’.Muxammedov (Buxoro, O‘zbekiston)

FAN va TARBIY XABARI Jurnal 2020. No 21 (99). 2 -qism

Abdujabbarova Musallam “Aholi turmush madaniyatini yuksaltirish asoslari” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2019

MILLIY MUSIQAMIZ TO’G’RISIDA SHARQ OLIMLARINING ILMYIY QARASHLARI

Sanoqul Do’stov

Buxoro davlat universiteti musiqa ta’limi
kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Annotasiya: maqolada milliy musiqamizning kuchli emotsional psixologik ta’siri to’g’risida Sharq olimlarining **ilmiy qarashlari** xususida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: qoshiq, kuy, ohang, nazm, navo, badiiy g’oya, ruhiy, hissiy, tafakkur, tuyg’u, fikr. idrok.

Mavzuning dolzarbliji: musiqa san’ati vositasida har bir insonni kamol topshirish-Vatan oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, insonni bolalikdan musiqaga qiziqtirish, musiqiy idrok tasavvurini o’stirib borish, har bir jamiyat uchun nihoyatda zarur bo‘lgan holatdir. Shu boisdan ham o‘quvchilarini musiqiy saviyasini rivojlantirib boorish, musiqa san’atida mehr va ishtyoqini oshirib zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, ayniqsa, musiqiy iqtidori bor o‘quvchilarning malakaviy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratish, zaruriy shart-sharoitlar yaratish,davlatimizning diqqat- e’tiborida bo’lib turibdi.

O‘quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qo’shiq juda muhum rol o’ynaydi. Chunki qo’shiq o’zida badiiy va musiqiy g’oyalarning o’zaro uyg’unlashgan obrazlarini tarkib toptiradi. Bu borada ayniqsa, milliy qo’shiqlarning mazmundorligi o’zgachadir. Milliy musiqamizning qo’shiq janri darsning asosiy o‘quv materiali

hisoblanib, u kuydan shunisi bilan farq qiladiki, qo'shiqqa ohang ham, badiiy so'z ham, ya'ni nazm va navo uyg'unlashadi, natijada o'quvchi qo'shiqni kuylashi orqali musiqiy ohang va so'z ma'nosini anglab oladi va ularga badiiy tushuncha paydo bo'ladi. Milliy qo'shiqlarda xalqlarning milliy madaniyati, hissiy kechinmalari, insoniy fazilatlari, ma'naviy dunyosi yorqin o'z aksini topadi.

Milliy musiqa kuchli emotsiyonal psixologik ta'sir xususiyatiga ega bo'lib, uni idrok etish orqali adekvat tasavvurlar shakllanadi. Musiqaning ijtimoiy-psixologik omillari ahamiyati Sharq olimlari asarlarida ham alohida takidlangan. Bu olimlar Abu Hasr al-Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Fahriddin ar-Roziy, Maxmud ibn Ma'sud ash-Sherziy, Muhammad ibn al A'moliy, Zaynulobiddin al-Xusayniy, Najmuddin Kafkabi, Buxoriy, Xoja Abduqodir Marog'iy, Abdulmo'min bin Yusuf al-Urmaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulhaq ad-Dehlaviy, Darveshali Ganjiy va boshqa allomalar bu boradagi o'zlarining qimmatli fikrlarini o'z asarlarida bayon etganlar. Ayniqsa, musiqa tinglash orqali unda ifodalangan mazmunni adekvat anglash, xalq musiqasi borasida tasavvurlar shakllanishining psixologik xususiyatlari Forobiyning soz chalib, kuy ijro etib, insonlarni sarosimaga solganligi, goho jo'shqin kishilarni xomush ahvolda tushurib, ba'zan esa ziyraklarini uxlatib, shinavandalarni hayratga qoldirganligi tarixda ma'lum.

Allomaning kuy ijro etishda tinglovchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib, unga kuchli emotsiyonal ta'sir qila olganligida amin bo'lamiz. U eshitish tajribasidan xoli bo'lgan hodisalar musiqaga aloqasi yo'qligini qayt etib, faqat tinglab, idrok qiladigan ohanglarnigina musiqa deb biladi.

Forobiy milliy musiqa cholg'u sozlarining psixologik ta'sir imkoniyatlari va musiqani tinglash orqali shaxsga shakllanib boradigan milliy musiqiy tasavvurlarga katta baho beradi hamda ijtimoiy hayotda ularni qo'llash borasida o'zining fikrlarining bayon qiladi: janglarda mo'ljallangan cholg'u sozlar mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqlar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muxabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'ular mavjudligini e'tibor etadi. Ayrimlarining tovushi keskin va hazin bo'ladi, bir so'z bilan aytganda, ular shunchalik ko'p, shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin.

Forobiyning mohir cholg'uchi sifatida cholg'ulardan jumladan, nay, qonun, ud, g'ijjak, tanbur va boshqa sozlarda mukammal ijro eta olgan va ulardan kuchli hissiy ta'sir vositasi sifatida foydalanganligi ma'lum.“ Kay shaxrida Soxib ibn Abbod huzurida ziyofat boshlanadi. Shunda u o'z sozi (g'ijjak)ni qo'lga olib, musiqa asarining birinchi qismini ijro etdi. Asarni tinglagan davradagi kishilar xandon otib kulishadi. Ikkinci qismi ijro etilganda, kuyning ta'siri ularni yig'lashga majbur qiladi, ularning ko'zidan shoda-shoda yosh to'kiladi. Uchinchi qismi chalinganda esa, ular hayajonga tushishadi. “Ushbu voqeа afsonaligiga qaramasdan, Forobiyning inson ruhiy olami, unda milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi meyorlarini chuqr tushunuvchi psixolog, kuchli ijrochi va mohir sozanda bo'lganligidan darak beradi. Musiqaning ulkan ijtimoiy-estetik qudratga ega ekanligini chuqr tushungan alloma ungan tarbiyada ya'ni insonlar ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish lozimligini takidlaydi.

Buyuk qomusiy olim, tabobat ilmining sultoni Abu Ali Ibn Sino o'zining ilmiy asarlarida musiqaning ruhiy-hissiy ta'siri orqali insonlarga milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi masalasiga keng to'xtaladi. U o'zining musiqaga doir nazariy g'oyalarini tovushning fizik xususiyatlaridan kelib chiqib yaratsa-da, musiqani faqat tajribaning

o'ziga bog'lab qo'ymaydi, balki uni fan va ilmiy tafakkur yordamida rivojlantirishga da'vat etadi, hamda musiqaning ijtimoiy- tarbiyaviy ahamiyatiga katta e'tibor beradi. Tarbiya masalalariga to'xtalib, "bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Birinchisi bolani asta- sekin tebratish bo'lsa ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa vositasida allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lган iste'dodi hosil qilindi, birinchisi jismiga, ikkinchisi esa qalbga mansubdir", deydi alloma.

Ibn Sino musiqani avvalo, insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi deb biladi. Fikr va tuyg'ularni izhor etishga so'z nutqini birlamchi, mutanosib kuylashni esa undan ham mukammalroq pag'ona sifatida bayon qiladi. "Agar kuy nazm va mutanosiblik bilan bezalgan bo'lsa, u qalbga kuchliroq ta'sir qiladi" – deb e'tirof etadi olim. U musiqa orqali bolalarning emosional hissiyotlarini tarbiyalashning ahamiyatini alohida ta'kidlab, "Tib qonunlari" asarida kichik yoshdan boshlab bolalarga musiqiy hissiyotlarni tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning musiqiy nazariy merosi o'sha davrda yaratilgan musiqa ilmi borasidagi eng mukammal sara ma'lumotlardan biri bo'lib, u o'z asarlarida milliy musiqiy ohanglarning tarbiyaviy ahamiyati va yo'naltiruvchi kuchiga katta baho bergen. Musiqa ilmida Ibn Sino asosiy e'tiborni tovushning fizik xususiyatlari qaratsa, Forobiy esa nazariyani ko'proq tajriba va musiqani idrok qilish qonuniyatlar bilan bog'liq degan fikrlarni ilgari suradi.

XI asrda yozilgan no'malum muallifning "Risolatus Fit-simo" asarida musiqaning psixologik va estetik- tarbiyaviy ahamiyati borasida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, "Yoqimli ovoz yuksak ta'sir kuchiga ega bo'lib, uni eshitish bilan inson qalbi ichki alamlardan holi bo'ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik, tashnalikni esidan chiqaradi. Musiqaning ta'sir kuchini shunday bilsa bo'ladi. Yig'lab turgan bola onaning allasini eshitib, tinchlanadi va uxbab qoladi" deb yozilgan. Asarda milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishining tarbiyaviy xususiyatlari haqida so'z yuritib, chaqaloqlik davridan boshlab milliy musiqiy ohanglarni singdirib borish lozimligi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi.

Safiuddin Urmaviy musiqa ilmining Forobiy va Ibn Sinodan keyingi eng yirik namoyondasi hisoblanadi. U o'zining musiqiy qarashlarida rationalistik g'oyalarini ilgari surgan. O'zining "Sharafiya" va Davrlar kitobi asarlarida musiqa nazariyasiga oid fikrlarini bildirib idrok qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z xulosalarini bayon qiladi. Jumladan, musiqiy tovushlar harakati va ularning o'zaro munosabatlari uning idrok qonuniyatlar nuqtai- nazaridan baholanishi musiqa tinglovchisida ma'lum emosional tasavvurlarni hosil qilishi lozimligini uqtiradi.

Kaykovus o'zining "Qobusnama" asarida esa musiqachilarining tinglovchilar bilan ijroviy munosabatlari borasida to'xtalib: "...agar hofiz bo'lsang, xushfel, quvnoq bo'l, hamma vaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirin so'z bo'l, qo'pol so'z, qovog'i soliq bo'limgan. Hamma vaqt og'ir yo'l (maqom) larni chalaverma va hamma vaqt yengil-yelpilarni ham chalaverma chunki bir xilda chalavermaslik kerak, negaki odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir- biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma-xildir" deb ta'riflab beradi.

Asarda allomaning musiqa ilmi va amaliyoti, uning kuchli emosional ta'sir vositasi munosabatlar tizimida musiqa amaliyotining muhim o'rni borasida qarashlari ifodalangan. Ayniqsa, tinglovchilarining milliy musiqiy tasavvurlari, qiziqishlari, turli janrdagi musiqa asarlariga munosabatlari masalasida to'xtalib, cholg'uda aynan

tinglovchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda musiqa asarlar ijro etish zarurligi, shundagina musiqada ifodalangan mazmunni anglash, u haqda to'laqonli tasavvurlarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, Sharqning buyuk mutafakkirlari, qomusiy olimlar va musiqa ilmi bilimdonlarining yuqorida bildirgan barcha fikr va mulohazalari shaxs kamolotida, uning milliy- ma'naviy o'zligini anglashda, ayniqsa, milliy- musiqiy tasavvurlarini shakllantirish orqali o'quvchilarda xalq musiqasiga nisbatan faol ijobiy munosabatlarni tarbiyalashda bugun biz inobatga olishimiz muqarrar bo'lgan ijtimoiy- psixologik talablarni chuqurroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliv janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017-yil
2. Mirziyoyev.SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Toshkent "O'zbekiston" 2016-yil
3. Nurmatov H. va boshqalar "Musiqa" 2-sinf uchun darslik G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi .Toshkent -2003
4. Nurmatov H. va boshqalar "Musiqa" 3-sinf uchun darslik G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2003.
- 5.O'quvchilarda musiqiy-nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari. Toshkent-1992-yil 92-bet

МУҲАММАНИЁЗ НИШОТИЙ "НАЙ ВА ШАМШОД" АСАРИ

*ЎзДК катта катта ўқитувчиси
Ботир Досимбетов*

Аннотация

Мазкур мақолада мумтоз шоирларнинг мусикий чолғуларга бўлган эътибори намоён этилган. Айниқса ўз даврида машхур бўлган чолғулар, созандалар ва мақомлар ҳақидаги аruzдаги шеърий кўринишлари баён этилган.

Annotation

В данной статье как классические поэты обращались в своей поэзии к музыкальным инструментам. Особенно в своё время известные музыкальные инструменты, музыканты и макомы прослежено на поэтический рифмы аруза.

Annotation

In this article, classical poets musical accompaniment to musical instruments is demonstrated. Especially popular in his time is described his poetic appearance in aruz about the musical instruments, musicians and statuses.

Калит сўзлар: чанг, най, уද, нағма, нола, тарона, музанний, соз, наво, мақом, зикр.

Ўзбек халқининг мусиқа мероси жуда бой ва қадимий тарихга эга. Унинг ажойиб анъаналари, буюк мусикий асарлари, бебаҳо ижод маҳсули бугунги қунга қадар сақланиб келмоқда ва ёшлар қалбидан жой олмоқда. Аслида куй ва оҳанг инсон руҳиятининг ифодаси саналади. Ҳар қандай асарнинг ғояси, тасаввури аввало ижодкорнинг ҳаёлида пайдо бўлади, сўнгра ижро воситасида жонланади ва муайян асар шаклланади. Ушбу ҳаёлот маҳсули бўлган беназир наво

тарбиясидаги ўрни

Ashı ORUNBAYEV. Buhara halk sovyet cumhuriyeti sanat alanindaki faaliyetleri	144
Лилия Харисовна Фаизова. Бухарцы в Сибири: роль в развитии духовной и материальной культуры сибирских татар	147
Шадманова Нодира Исматуллаевна. Фитрат ёшларнинг мусиқий-маданий тафаккурини шаклланиши ҳақида	152
Qurbanov Qo'Idosh Yo'Idoshevich. Dirijyorlik san'ati taraqqiyoti xususida	155
Muxamedov To'lqinjon Djuraevich. Yoshlar tarbiyasining ma'naviy-axloqiy negizlari: yoshlar turmush madaniyatini rivojlantirishda bo'sh vaqtidan oqilona foydalanishning o'rni va ahamiyati	158
Sanoqul Do'stov. Milliy musiqamiz to'g'risida sharq olimlarining ilmiy qarashlari	161
Ботир Досимбетов. Мұхамманиәз Нишотий “Най ва Шамшод” асари	164
Xamdamova Sitora Rustam qizi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish	168
Тўхтасин Ражабов, Шамшод Ўринов. Бармоқ вазни – халқ қўшиқларининг қадимий ўлчов шакли	169
Тўхтасин Ражабов, Махлиё Рустамова. Халқ қўшиқларида банд ва унинг кўринишлари	173
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, Sattorov Mirshod Erkinovich. The use of folklore in the physical education of preschoolers	177
Eshov Erkin Sattorovich. Psychological understandings of folklore works by young school children	179
5-ШЎЪБА. ТАСВИРИЙ ҲАМДА АМАЛИЙ САНЬЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	
Azimov Sanjar Samadovich. Interfaol usullarni qo'llash orqali tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish	184
M.O.Ochilova, N.A.Raximova. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati.	187
Aslanova N.X. Umumiy o'rta ta'lim mablag'i tasviriy san'at fanlarida interfaol usulda dars o'tish metodini qo'llash	189
G'aniyeva D.K. Dizayn san'ati va zamonaviy tendensiyalari, namunalar tahlili	191
Хакимова Г.А, Жабборова Гўзал Одиловна. Бухоро амалий санъатида мумтоз композицияларнинг акси	194
Azimova M.B. Buxoro tarixiy obidalaring tasviriy san'at tarixidagi o'rni	197
Avliyakulova Nafisa Muzaferovna, Umedov Shahzod Shokir o'g'li. Sharq miniatyurasi o'ziga xos xususiyatlari	198
Avezov Sherzod Naimovich, Ishankulov Sherzod Sharipovich. Amaliy perspektiva texnologiyalaridan foydalanishda talabalarining tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish	200
Dilshod Qodirovich Mamatov. Tasviriy amaliy darslarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirish	202
Azimova Muxayyo Barotovna, Majidova Rayhon. Rahim Ahmedov xalq rassomi	204
Ibadullaeva Shaxnoza Ilxamovna, Karimova Mahbuba Nutfullaevna. Tasviriy san'atda Amir Temur siymosi	206
